

Ona aziz - ona mo'tabar

2018 yil 9-mart kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4 - sonli talabalar turar joyida "Gidromelioratsiya" fakulteti xotin-qizlar qo'mitasi raisasi Dilfuza Madazizova, "Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi Shohida Raupova hamda 4 - sonli talabalar turar joyi tarbiyachi-pedagogi Javlonbek Qutlimurotovlar tomonidan "Ona aziz - Ona mo'tabar" mavzusida tadbir o'tkazildi.

Ayol!

Ayolni aldamang xiyonat kilmang.

U sizni aldasa yomon bo'ladi.

Ishonchiga kirgach jinoyat qilmang.

Nomardning ustozini hayvon buladi.

Ayolni aldamang u sizni Sevib

Jonining uchida ehtiyot qilib.

Bitta yolg'on bilan qolmasin sovib.

Atirgul bargida tikon bo'ladi.

Ayolni aldamang. U Ona. U yor

U mehribon singil, opa, vafodor

Unga zig'irchalik bermangiz ozor

Pokiza nomlari harom bo'ladi

Ayolni aldamang uni avaylang

Axir, U siz uchun yashaydi o'ylang.

Nozikkina Gulni so'ldirib qo'ymang

Kim unga sizchalik qalqon bo'ladi.

Tadbirni fakultet xotin-qizlar qo'mitasi raisasi Dilfuza Madazizova ochib berdi.

"Gidromelioratsiya" fakulteti Yoshlar ittifoqi a'zolari Komila Jumaniyozova tadbirni chiroyli matn va "Ona" haqidagi she'r bilan boshladi.

So'ng talaba qizlarga To'ti Yusupovaning "Ona xati" monologi namoyish etildi.

“Gidromelioratsiya” fakulteti Yoshlar ittifoqi a’zolari Madina Yusupalieva, Mehrangiz Isroilova va Sojida Turdalievalar tomonidan “Ona” haqida chiroyli va mazmundor she’rlar o’qildi.

Tadbir so’ngida O’lmas Olloberganov ijrosidagi “Ona” qo’shig’i va klipi namoyish etildi.

Tadbir juda chiroyli va sermazmun o’tdi. Talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarga to’liq javob oldilar.



4 -TTJ tarbiyachi-pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov